IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

NIKOH BEKOR QILINGANIDA YUZAGA KELADIGAN FIQHIY MASALALAR

Jannatxon Saydillayeva
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
islom instituti bakalavr bosqichi
4-kurs talabasi.
Tel: +998909813657
https://doi.org/10.5281/zenodo.20561109

Islom dinida oila muqaddas dargoh, jamiyatning asosiy poydevori hisoblanadi. Biroq, insoniy munosabatlarda ba'zan murosasiz vaziyatlar yuzaga kelib, nikohni bekor qilish yagona chora bo'lib qolishi mumkin. Shariatda nikohning bekor qilinishi shunchaki ikki insonning ajralishi emas, balki o'zidan keyin muayyan majburiyatlarni keltirib chiqaradigan jarayondir. Nikoh bekor qilingach, ayolning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, nasablar aralashib ketishining oldini olish va farzandlar manfaatini himoya qilish maqsadida bir qancha fiqhiy hukmlar joriy etilgan.

Nikoh bekor qilinganida yuzaga keladigan eng muhim masalalardan biri – idda masalasidir. "Idda" so'zi lug'atda "sanash", "hisoblash" ma'nolarini bildiradi. Shariatda esa, ayol kishi erining vafotidan keyin yoki eri bilan ajrashganidan so'ng saqlashi lozim bo'lgan muddat "idda" deb ataladi[1]. Bundan bilinadi-ki, idda eri vafot etgan yoki ajrashgan ayolga vojib bo'ladi. Bu o'rinda faqatgina nikoh bekor qilinganidan so'ng vojib bo'ladigan idda haqida bahs yuritiladi. Fiqhiy jihatdan iddaga quyidagicha ta'rif beriladi: "Idda – nikoh tugashi sababidan ayolga lozim bo'lgan kutish muddatidir. U ayolning bachadoni homiladan xoli ekanligini bilish uchun shariatga kiritilgan"[2]. Bu ta'riflardan bilish mumkinki, iddaning asosiy maqsadi ayolning homilador yoki homilador emasligini bilish ekan. Bu esa jamiyatda nasablar aralashib ketishini oldini oladi.

Iddaning vojibligi Qur'oni karim, sunnat va ulamolar ijmosi bilan sobit bo'lgan. Alloh taolo Qur'oni karimda "Taloq qilingan ayollar o'zlari uch quru kutarlar" (Baqara,228) deya marhamat qilgan. Oyat buyruq ma'nosidagi xabardir. Aslida esa "Taloq qilingan ayollar kutsinlar" ma'nosini bildiradi. Buyruqni xabar ko'rinishida keltirish buyruqni yanada ta'kidlash uchundir.[3]

Mazkur oyatdan ko'rinadiki, nikoh taloq orqali bekor qilinganidan so'ng ayol uchun idda saqlash majburiydir. Ulamolar yaqinlik qilingandan so'ng taloq qilingan yoki eri vafot etgan har bir ayolga idda vojib ekanligiga ijmo qilishgan. Ammo yaqinlik qilinmagan ayol bo'lsa, taloq qilinsa unga idda lozim emas, lekin eri yaqinlikdan oldin vafot etsa, uning haqqi rioyasi uchun o'lim iddasi vojib bo'ladi[4].

Ayolning holatidan kelib chiqib idda muddati uch xil ko'rinishda bo'ladi. Agar ayol hayz ko'radigan bo'lsa, uning iddasi uchta hayz bilan belgilanadi. Yuqorida keltirilgan oyat bunga dalil bo'ladi. Oyatda zikr qilingan "quru" lafzi poklikni ham, hayzni ham ifodalovchi so'z bo'lib, hanafiy mazhabida hayz ma'nosi olingan.

Agar kishi ayolini boin yoki raj'iy taloq qilsa, yoki ular orasiga taloqsiz ajrim tushsa, ayol hayz ko'radigan, hur ayol bo'lsa, uning iddasi uch qurudir. Quru – hayzdir[5]. Demak, hayz ko'radigan ayolga taloq berilsa, uch marotaba to'liq hayz ko'rishi bilan iddasi tugar ekan.

---

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2014. – B. 484.
[2] Abu Bakr ibn Ali al-Haddod. Al-javhara an-nayyiro. – Doha: Sharikatu dirosat lil-buhus val-istishorot al-masrifiyya al-islomiyya, 2010. – J. 5. – B. 5.
[3] Abu al-Barokot an-Nasafiy. Tafsir an-nasafiy. – Bayrut: Dor ibn kasir, 2022. – J.1. – B.188
[4] Muhammad Bakr Ismoil. Al-fiqh al-vodih. – Qohira: Dor al-manor, 1998. – J. 2. – B. 118.
[5] Imom Ali ibn Abu Bakr al-Marg'inoniy. Al-Hidoya. – Madina: Dor as-siroj, 2019. – J. 3. – B. 325.

Yoshi kattaligi yoki kichikligi sababli hayz ko‘rmaydigan ayollar va homiladorlarning iddasi ham Qur’on oyatlari bilan belgilangan bo‘lib, Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Ayollaringizdan hayzdan noumid bo‘lganlarining iddasi, agar shubhangiz bo‘lsa, uch oydir. Hayz ko‘rmaganlariniki ham. Homiladorlarning iddasi homilalarini qo‘yishlaridir”[6]. Oyatdan ma’lum bo‘ladiki, yoshi ulg‘ayib hayz ko‘rmay qo‘ygan ayollar yoki hali biror marta hayz ko‘rmaganlarning iddasi uch oy deb belgilangan ekan. Homiladorlar esa homilasini tug‘ishi bilanoq iddasi tugar ekan. Bu hukmlar oyat va hadislar bilan sobit bo‘lib, barcha fiqh kitoblarida bayon qilingan.

Idda muddati ichida ayolni nafaqa va maskan (yashash joyi) bilan ta’minlash erga vojib bo‘ladi. Nafaqa deganda ayolning yashashi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlarini qondirish tushuniladi. Turar joy esa ayolning idda davrida yashashi lozim bo‘lgan joyni anglatadi. Er idda muddatida ayolni uydan haydab chiqarishga haqqi yo‘q. Ayol nikoh payti yashab turgan uyida iddasini o‘tashi lozim. Oyati karimada taloq qilingan ayollar haqida “Ularni uylaridan chiqarmanglar va o‘zlari ham chiqmasinlar”, deya amr qilingan. Bu ko‘rsatma shuni anglatadiki, taloq qilingan ayollar idda muddati davomida o‘zlari istiqomat qilayotgan uylardan chiqarilishi mumkin emas. Har bir idda saqlovchi ayol, modomiki shu holatda ekan, erining zimmasida turar joy (maskan) bilan ta’minlanish huquqiga egadir. Erning uni haydab chiqarishga haqqi yo‘q, ayolning o‘zi ham uydan chiqishi joiz emas. Zero, idda saqlovchi ayollar erining huquqini rioyasini qilgan holda, faqatgina o‘ta zaruriy ehtiyoj bo‘lsagina chiqishlari mumkin. Agar ayol zaruratsiz kechasi yoki kunduzi uydan chiqsa, u gunohkor bo‘ladi[7].

Raj’iy taloq qilingan ayol yoki homilador holida taloq qilingan ayolni maskan va nafaqa bilan ta’minlash vojibligida ixtilof yo‘q. Lekin boin taloq berilgan homilador bo‘lmagan ayolning nafaqasi masalasida mazhablar o‘rtasida biroz farqlar mavjud bo‘lib, Hanafiylar nazdida u ayolga ham nafaqa berish lozim bo‘ladi. Hanafiy imomlarning aytishicha, raj’iy taloq berilgan va homilador ayol kabi boin taloq berilgan ayolning ham nafaqa haqqi bor. Chunki nafaqa maskanga tobe bo‘ladi, maskan vojib bo‘lsa nafaqa ham vojib bo‘ladi[8].

Idda muddati ichidagi hukmlar taloq turiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Agar ayolga raj’iy taloq berilgan bo‘lsa, iddada erining uyida o‘tiradi, mana shu muddat ichida eriga halol bo‘ladi, yasanib ziynatlanishi mumkin. Agar eri raj’at qilmasa, idda tugashi bilanoq ushbu taloq boin taloqqa aylanadi va ayol eriga harom bo‘ladi.

Agar boin taloq berilgan bo‘lsa, o‘sha zahotiyoq er va ayol o‘rtasida nikoh rishtasi uzilgan bo‘lib, ayol endi eriga harom bo‘ladi. Uning oldida xuddi begona nomahramlardan saqlangani kabi saqlanib, satr bilan yurishi vojib bo‘ladi. Boin taloq berilgan ayolga eri vafot etgan ayol kabi motam (ihdad) vojib bo‘ladi va ziynat, xushbo‘ylik, surma kabilarni tark qiladi. U (ihdad) - boin taloq berilgan yoki eri vafot etgan ayolga nikoh ne’mati ketganligi uchun taassufni izhori sifatida vojibdir. Bu xushbo‘ylik, zeb-ziynat, bezakli kiyimlarni kiyish va surma qo‘yishni tark etish bilan bo‘ladi[9].

Idda muddati ichida ayol boshqa kishiga turmushga chiqishi, boshqalar ham bu ayolga sovchi qo‘yishlari mumkin emas. Bu haqida Qur’oni karimda shunday keltiriladi:

“U ayollarga ishora ila sovchilik qilishingiz yoki uni o‘z ichingizda tutishingizda gunoh yo‘q. Alloh siz ularni albatta eslashingizni biladir. Lekin ular bilan xufyona va’dalashmang.

---

[6] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol ma’nolar tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 558. Taloq surasi, 4-oyat.
[7] Vahba az-Zuhayliy. At-tafsir al-munir. – Damashq: Dor al-fikr, 2009. – J. 14. – B. 653.
[8] Muhammad Bakr Ismoil. Al-fiqh al-vodih. – Qohira: Dor al-manor, 1998. – J. 2. – B. 129.
[9] Abdulhamid Mahmud Tahmaz. Al-fiqh al-hanafi fi savbihi al-jadid. – Bayrut: Ad-dor ash-shomiya, 2018. – J. 2. – B. 207.

Magar yaxshi gap gapirsangiz, mayli. Idda o‘z muddatiga yetmaguncha, nikoh bog‘lashni qasd qilmang”[10].

Ushbu oyatga ko‘ra idda muddatida ayolga sovchi qo‘yish harom bo‘ladi. Oyat eri vafot etgan ayolga iddasida turmush qurishga rag‘bati borligini izhor qilish, ishora bilan bildirish joizligiga dalolat qiladi. Lekin taloq qilingan ayolga bunday qilish mumkin emas, chunki bu taloq qilgan er bilan uning o‘rtasida adovat paydo qiladi[11].

Ajrimdan so‘ng ayol farzand ko‘rsa nasab masalasi ham yuzaga keladi. Nasab farzandning otasiga mansubligini anglatadi. Islom fiqhiga ko‘ra, sahih nikohda tug‘ilgan bola otasiga nasab jihatidan bog‘lanadi. Shuningdek ajrim payti mavjud bo‘lgan homila ham otaga nisbat beriladi. Agar ayol idda muddati ichida farzand tug‘sa, u bolaning nasabi erga nisbat beriladi. Agar boin taloq olgan ayol homiladorlikning eng ko‘p muddati bo‘lgan ikki qamariy yil ichida tug‘sa, bolaning nasabi otasidan sobit bo‘ladi. Raj’iy taloqda esa qachon tug‘sa ham otaga nisbat beriladi, agar ikki yildan ko‘p muddatda tug‘sa, raj’at bo‘lgan deb e’tiborga olinadi. Raj’iy taloqdan so‘ng madomiki ayol idda tugaganiga iqror bo‘lmagan bo‘lsa, qachon tug‘sa ham, garchi ikki yildan ko‘p vaqt o‘tsa ham bolaning nasabi ayolning eridan sobit bo‘ladi.[12]

Ajrimdan so‘ng farzandlar kim bilan qolishi ham muhim masalalardan biridir. Farzandni parvarish qilish va tarbiyalash hizona deb atalib, ajrimdan so‘ng farzand kim bilan qolishi, hizona haqqi kimga berilishi aniq tartibga solingan. Unga ko‘ra ona eng avvalgi o‘rinda turadi. So‘ngra onaning onasi, otaning onasi, ota-ona bir opa, ona bir opa, ota bir opa, ota, xolalar va ammalar turadi. Bulardan biri bolaga mahram bo‘lmagan begona shaxsga turmushga chiqsa, hizona haqqi soqit bo‘ladi, ajrashsa yana bu haqqi qaytadi.[13] Agar ona vafot etsa yoki hizonani qabul qilmasa yoki haqqini soqit qilsa yoki boshqa begona erkakka turmushga chiqsa hizona haqqi onaning onasiga o‘tadi[14]. Bundan tashqari bolani qaramog‘iga olayotgan shaxs musulmon, oqil, balog‘atga yetgan, turli yomon xulqlardan xoli, bolaning tarbiyasi va xizmatini qilishga salohiyatli bo‘lishi lozim.[15]

Shu bilan birga, hizona huquqi kimga berilishidan qat’i nazar, farzandning moddiy ta’minoti otaning zimmasida qoladi. Ota farzandning nafaqasi, ta’limi va asosiy ehtiyojlarini qondirishga mas’ul hisoblanadi. Bu mas’uliyat nikohning bekor bo‘lishi bilan bekor bo‘lmaydi. Kichik farzandlarning nafaqasi otaga vojib bo‘ladi, ayolining nafaqasida hech kim sherik bo‘lmagani kabi, farzandning nafaqasida ham otaga hech kim sherik bo‘lmaydi[16].

Nikoh bekor qilingach yuzaga keladigan muhim fiqhiy oqibatlardan yana biri mahr masalasidir. Mahr nikoh aqdining ajralmas qismi bo‘lib, u er tomonidan ayolga nikoh sababli berilishi vojib bo‘lgan moliyaviy haqdir. Islom fiqhida mahr ayolning shaxsiy mulki hisoblanadi va undan er yoki boshqa shaxslar foydalana olmaydi. Agar mahr nikoh boshlanishida yoki turmush davomida berilmagan bo‘lsa, ajrimdan so‘ng darhol berilishi vojib bo‘lib qoladi. Nikoh bekor qilinganidan keyin mahrning to‘liq yoki qisman berilishi nikohning qanday shaklda bekor qilinganiga, shuningdek er-xotin o‘rtasida yaqinlik (duxul) bo‘lgan-bo‘lmaganiga bog‘liq bo‘ladi. Bu masala ham Qur’oni karim, sunnat va fuqaholarning qarashlari asosida batafsil tartibga solingan. Nikohdan so‘ng er-xotin o‘rtasida yaqinlik sodir bo‘lgan bo‘lsa va undan keyin nikoh taloq orqali bekor qilinsa, ayolga belgilangan mahrning to‘liq miqdori berilishi vojib bo‘ladi. Bu

---

[10] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol ma’nolar tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 38. Baqara surasi, 235-oyat.
[11] Abdulhamid Mahmud Tahmaz. Al-fiqh al-hanafiy fi savbihi al-jadid. – Bayrut: Ad-dor ash-shomiya, 2018. – J. 2. – B. 209.
[12] Muhammad Bakr Ismoil. Al-fiqh al-vodih. – Qohira: Dor al-manor, 1998. – J. 2. – B. 187.
[13] Qarang: Abu al-Barokot an-Nasafiy. Kanz al-daqoiq. – Madina: Dor as-siroj, 2011. – B. 311.
[14] Abdulhamid Mahmud Tahmaz. Al-fiqh al-hanafiy fi savbihi al-jadid. – Bayrut: Ad-dor ash-shomiya, 2018. – J. 2. – B. 212.
[15] Muhammad Bakr Ismoil. Al-fiqh al-vodih. – Qohira: Dor al-manor, 1998. – J. 2. – B. 161.
[16] Imom Ali ibn Abu Bakr al-Marg‘inoniy. Al-Hidoya. – Madina: Dor as-siroj, 2019. – J. 3. – B. 386.

hukm taloqning raj'iy yoki boin bo'lishidan qat'iy nazar amal qiladi. Chunki yaqinlik mahrning to'liq vojib bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunga dalil qilib quyidagi oyat keltiriladi:

"Ulardan huzurlanishingiz sababidan mahrlarini bering. Bu farzdir. Farz mahrdan keyin o'zaro rozilik ila kelishganingiz gunoh emas"[17].

Mahr belgilanmagan bo'lsa va yaqinlik qilingan bo'lsa unga sifatlarda, darajada o'ziga o'xshash bo'lgan ayol qarindoshining mahri miqdoricha beriladi. Bunda ayolning opa-singillari, qizlari va ammalarining qizlari e'tiborga olinadi[18].

Taloq nikohdan so'ng, yaqinlikdan oldin amalga oshirilgan bo'lsa, bu holatda mahr masalasi boshqacha hal etiladi. Agar nikoh vaqtida mahr aniq belgilangan bo'lsa, ayolga uning yarmi beriladi. Alloh taolo aytadi: "Agar ularga qo'l tegizmay taloq qilsangiz va mahrni aniqlab qo'ygan bo'lsangiz, aniqlanganning yarmini berasiz, magar ayol yoki nikoh tuguni qo'lida bo'lgan kishi afv qilsa, bermaysiz"[19].

Agar mahr belgilanmagan bo'lsa, u holda ayolga "mut'a" berilishi vojib bo'ladi. Bu ham Qur'oni karimda aniq bayon qilingan hukmlardan biri bo'lib, oyatda shunday deyiladi:

"Agar xotinlarga qo'l tekkizmay turib yoki ularni mahrni aniqlamay turib taloq qilsangiz, sizga gunoh bo'lmas. Ularni boy boricha, yo'q holicha yaxshilik ila foydalantiring. Bu yaxshilik qiluvchilar burchidir"[20]. Oyatdagi "yaxshilik ila foydalantiring" jumlasi mut'a berishga ishora qiladi. Mut'a – taloq qilingan ayolga er tomonidan beriladigan hadya bo'lib, u bir sidra kiyim bosh – ko'ylak, ro'mol va yopinchiqdan tashkil topadi. Bu hukmlardan bilinadiki, islom dini hatto ajrimni ham chiroyli shaklda qilishga buyuradi. Ajrashayotgan paytda ham urush-janjalsiz, hadya berib, ayolning ko'nglini olgan holda ajrashishga undaydi. Shu bilan bir qatorda, boshqa bir oyati karimada taloq qilingan ayolga oldin berilgan mahr yoki boshqa hadyalarni qaytarib olmaslikka buyuradi:

"Va agar xotin o'rniga boshqa xotin olmoqchi bo'lsangiz va ularning biriga haddan ziyod mahr bergan bo'lsangiz ham, undan hech narsani qaytarib olmang"[21].

Yuqorida zikr qilinganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, Islom shariatida ajrim jarayonida yuzaga keladigan mahr, nafaqa va idda bilan bog'liq hukmlarning barchasi ayolning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishga hamda uning jamiyatdagi iqtisodiy barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda ushbu qoidalarni jamiyatda kengroq targ'ib qilish ajrimdan keyin yuzaga keladigan ko'plab nizolarning, ayniqsa mulkiy va farzand tarbiyasi bilan bog'liq muammolarning adolatli hal etilishiga xizmat qiladi. Islom shariatining ushbu tamoyillari oilalarni tanazzuldan saqlash va ajrashgan ayollar hamda bolalarning huquqlarini himoya qilishda hamon o'zining dolzarbligini yo'qotmagan.

[17] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol ma'nolar tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 82. Niso surasi, 24-oyat.
[18] Shayx Roshid Husayn an-Nadaviy. Al-fiqh al-muyassar. – Bayrut: Dor ibn kasir, 2023. – J. 2. – B. 20.
[19] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol ma'nolar tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 38. Baqara surasi, 237-oyat.
[20] O'sha manba: – B. 38. Baqara surasi, 236-oyat.
[21] O'sha manba: – B. 81. Niso surasi, 20-oyat.